Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

SAIDMUHAMMAD YO'LDOSH IBN DAVLAT SHE'RIYATIDA BADIIY MAHORAT MASALALARI VA UNING TIL XUSUSIYATLARI

Abdullo Oblokul o'g'li Isokulov[a,*], Zayniddin Oltinovich Qurbonov[b]

[a] *Samarqand davlat pedagogika insituti mustaqil izlanuvchisi (Oriental universiteti o'qituvchisi)*
[b] *Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
✉ abdulloisakulov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Kattaqo'rg'on adabiy muhitida ijod qilgan iste'dodli shoir Saidmuhammad Yo'ldosh ibn Davlat she'riyatining badiiy mahorati hamda lisoniy-uslubiy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Shoirning asosan diniy-tasavvufiy yo'nalishda bitilgan g'azallarini lingvopoetik jihatdan o'rganib, lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ifodalashda qo'llanilgan badiiy san'atlar, o'xshatishlar tizimi hamda lug'aviy birliklarning matndagi o'rnini aniq misollar yordamida ochib beradi.

Kalit so'zlar

Badiiy mahorat, lingvopoetik tahlil, lisoniy-uslubiy xususiyat, tasavvuf she'riyati, individual uslub.

DOI: 10.5281/zenodo.21743410

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf she'riyati tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijod qilgan vakillarning adabiy merosi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Kattaqo'rg'on adabiy muhitida shakllangan shoirning ijodiy merosi o'ziga xos lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu muhitda va diniy-tasavvufiy yo'nalishda ijod qilgan Ibn Davlatning ijodiy merosi o'zining g'oyaviy-estetik teranligi bilan bir qatorda, o'ziga xos lisoniy xususiyatlari bilan xarakterlidir. Ma'lumki, " …badiiy matn tahlilida asar mualifi qo'llagan har bir til birligiga alohida e'tibor berish, ularning asar poetikasini yaratishdagi o'rnini belgilash talab etiladi. Bir qarashda bu tamoyillar asarning til jihatlariga tegishlidek ko'rinadi. Ammo asarda ijodkorning so'z tanlashdan tortib, qaysi usullarni qo'llashgacha - barchasi asarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan vositalar hisoblanadi" [1, B. 105]. Shundan kelib chiqqan holda shoirning lirik merosini lisoniy-uslubiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijodkor so'zning semantik imkoniyatlarini chuqur his etgan va o'z badiiy niyatini ifodalashda tilning barcha silsilalaridan – fonetik, leksik va sintaktik sathlaridan unumli foydalangan. Badiiy asar tili va uning uslubiy xususiyatlari, qolaversa, shoirning so'z qo'llash mahorati uning shaxsiy uslubini belgilovchi asosiy mezondir.

ADABIY TAHLIL VA METODOLOGIYA

Saidmuhammad Yo'ldosh ibni Davlat she'riyatidagi badiiy san'atlar, o'xshatishlar tizimi va lug'aviy birliklar nafaqat lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi, balki o'sha davr adabiy tilining boy qatlamini, uning taraqqiyot bosqichlarini ham o'zida aks ettiradi. Ibni Davlat ijodi, asosan, pand-nasihat xususiyatiga ega bo'lib, diniy-tasavvufiy atamalar va mumtoz she'riyat leksikasi uzviy ravishda birlashib, shoirning individual uslubini tashkil etgan. Masalan:

Sanov-u hamd ul Xoliqqakim zoti erur yakto,
Yaratti besutun ko'kni – bu to'qquz gunbazi xazro [2, B. 14].

Ushbu baytda koinotning ilohiy yaralish tarkibi tasvirlangan bo‘lib “Xoliq”, “zoti yakto”, “besutun ko‘k” va “to‘qquz gunbazi xazro” kabi birikma-vositalar yordamida shoir islomiy koinot modelini, ya’ni, Alloh tomonidan butun olamni yaratishga bilvosita poetik tarzda ishora qiladi. Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-lug‘ot” asarida hamda P. Shamsiyev va S. Ibrohimovning “Navoiy asarlari lug‘ati”da keltirilishicha “To‘qquz gunbazi xazro” metaforasi diniy nuqtayi nazardan ishlatilgan bo‘lib, qadimgi astronomik qarashlarga ko‘ra, koinot bir-birining ichiga joylashgan to‘qqizta falakdan iborat deb qaralgan. Dastlabki yettitasi sayyoralar: Oy, Utorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhal, sakkizinchisi - qo‘zg‘almas yulduzlar: Kavokibi sobita, to‘qqizinchisi esa barchasini harakatga keltiruvchi: Falakul-aflok (Arshi a’zam) hisoblangan. “Xazro” arabchada ko‘k, yashil, zangori ranglarni ifodalaydi. Mumtoz she’riyatda osmon yashil rang bilan tavsiflanishi qadimda tunda yulduzli osmonning zangori-qoramtir ko‘rinishi bilan izohlanadi, bu esa baytning g‘oyaviy ko‘lamini, shoirning olam tuzilishi va ilohiyot haqidagi qarashlarini yorqin ko‘rsatib beruvchi kognitiv funksiyani bajaradi. Bu kabi sifatlashlar Alisher Navoiyning ijodida ham sermahsul ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

G‘azaldagi keyingi baytda Payg‘ambar (s.a.v) ta’rifi keltiriladi:

Tufayli hazrati Ahmad yaratti ikki olamni,

Laqab qildi Habibiga Xudoyim Yosin-u Toho [2, B. 14].

Bu misralarda talmeh san’atining go‘zal namunasi ko‘zga tashlanadi. “Yosin-u Toho” – Qur’oni Karimdagi sura nomlari bo‘lib, ular mumtoz adabiyotimizda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning sifatlari, ismlari sifatida keng qo‘llaniladi. Shoir ushbu diniy-tasavvufiy istilohlardan foydalanib, she’rning semantik ko‘lamini kengaytiradi. Keyingi misralarda esa shoirning badiiy maqsadi oydinlashib, oxiratda saodat keltiruvchi yagona yo‘l “nuri iymoni, ya’ni, iymon nuri” ekanligi uqtiriladi.

Saodat mundin o‘tmas nuri iymoni bilan borsa,

Qilur oxir Xudovandim go‘ridin surxro‘ ehyo.

Desalar bandani ummat Qiyomat dashtida Ahmad,

Saodatdur, saodatdur, erur ul davlati ubqo [2, B. 14].

Yuqoridagi misralarga fonetik va morfemik nuqtayi nazardan yondashganda, baytlardagi eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan grammatik shakllar, masalan, “zotig‘a”, “go‘ridin”, “aylasa”, “qilmag‘il” saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi xususiyatlar, bizningcha, Ibn Davlat yashab ijod qilgan davr tilining o‘tish bosqichida ekanligi, diniy-tasavvufiy g‘azallarning janriy xususiyatlari, qolaversa, mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalari Alisher Navoiy, Mashrab, So‘fi Olloyor an’analariga qat’iy rioya etganligi bilan xarakterlidir. Qolaversa, shoir takrir san’atidan o‘rinli foydalangan holda, “Saodatdur, saodatdur” shaklidagi sintaktik takror orqali lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini, oxiratdan umidvorlik hissini kuchaytirib beradi. Leksik qatlamda “surxro” - yuzi yorug‘ bo‘lishi; “ehyo” – tirilish, ya’ni, qiyomat kuniga ishora; “ubqo” – boqiy - diniy nuqtayi nazardan jannat hayotiga erishish kabi arabiy va forsiy o‘zlashmalar g‘azalning vazn va poetik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Iloho, ibni Davlatning gunohin mag‘firat ayla,

Karimdursan, karam ayla zabonin aylag‘il go‘yo [2. B. 14].

Maqta’ baytida an’anaviy taxallus qo‘llash bilan birga munojot – tazarru motivlari yaqqol ko‘rinadi. Yana bir jihatga e’tibor qaratishimiz kerakki, shoir g‘azallaridagi “Ibn” arab tilidagi “o‘g‘li” ma’nosini beruvchi birlikning deyarli barcha o‘rinlarda “ibni” shaklida berilishi vazn talabi sababidan kelib chiqqan. Vazn talabidan kelib chiqib so‘zlarning turli shakllaridan foydalanishni XIX asr va XX asr boshlaridagi ko‘pgina ijodkorlar asarlarida uchratishimiz mumkin. Maqtadagi “Karimdursan, karam ayla” misrasida ishtiqoq san’atini qo‘llash orqali ohangdorlikni oshirish bilan birga lirik qahramon o‘z gunohlariga mag‘firat so‘rashi va “zabonin aylag‘il go‘yo” (tilimni burro qil, so‘zlashga qodir et) deya iltijo qilishi orqali, nafaqat oddiy insoniy ojizlikni, balki chinakam shoirlik iste’dodini ham Yaratganning karami deb bilishini ta’kidlaydi.

XULOSA

Shuni ta’kidlash mumkinki, Saidmuhammad Yo‘ldosh ibn Davlat she’riyati o‘zbek mumtoz adabiyotining go‘zal davomchisi bo‘lib, uning asarlari tili chuqur lingvopoetik tahlilga tortilishi lozim bo‘lgan boy

manbadir. Tahlilga tortilgan mazkur g‘azal shoirning so‘z tanlash, qofiya va radif qo‘llashdagi mahoratini, shuningdek, lingvistik va ekstralingvistik omillarning badiiy matndagi yaxlitligini yorqin ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Komilov. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2011. 392 b.
2. Saidmuhammad Yo‘ldosh ibni Davlat. Devon. Toshkent, “Tamaddun” nashriyoti, 2019. -208 b.
3. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). I jild, Toshkent, “Universitet” 2000. 600 b.
4. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar) II jild, Toshkent, “Universitet” 2003. 600 b.
5. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar) II jild, Toshkent, “Universitet” 2009. 283 b.